

2014 yil yanvar-iyun oylarining yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" DAK korxonalarini faoliyati to'g'risida

// 22.07.2014

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/otchet20141>

2014 yilning I yarim yil yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" korxonalarida **995,3** mlrd. so'mlik tovar mahsulot (o'sish sur'ati 103,6%) hamda **91,3** mlrd.so'mlik xalq iste'mol mollari (o'sish sur'ati 134,4%) ishlab chiqarildi.

Sof holda **589,68** ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan **466,87** ming tonna azotli o'g'itlar, **76,44** ming tonna fosforli o'g'itlar va **46,37** ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq 2014 yil yanvar-iyun oylarida **69,7** mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi (prognoz 14,8mlrd.so'm).

2014 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida "O'zkimyosanoat" DAK korxonalarini tomonidan **36,56** mln.dollar hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi va prognoz 109,7%-ga bajarildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalarga binoan **100,6** mlrd.so'mlik mahsulot kompaniya korxonalarini tomonidan sotib olindi.

321 yangi ish o'rni, shu jumladan kasanachilik asosida 54 ish o'rni yaratildi.

Xududiy «Qishloq xo'jalik kimyo» aksiyadorlik jamiyatlaridagi mavjud texnikalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalariga 2014 yil yanvar-iyun oylari davomida 23,7 mlrd.so'mlik agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan: 654,1 mln.so'mlik 51,0 ming tonna kompost tayyorlandi va sotildi, 148,3 ming tonna organik va 400,2 ming tonna mineral o'g'itlar fermer xo'jaliklari ekin maydonlariga yetkazib berildi. 237,5 ming gektar g'alla maydonlarida mineral o'g'itlar sepilib, suspenziya tadbirlari o'tkazildi.

**"O'zkimyosanoat" DAK
matbuot xizmati**